

XONDIZA MA'DANLI MAYDONINING MAGMATIZMI VA FOYDALI QAZILMALARI

Axmatov S.F.

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Neft-gaz va konchilik ishi kafedrası stajori

Tel: +998900323983

axmatovsobir17@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xondiza ma'danli maydonining magmatizmi va foydali qazilmalari magmatik kompeliqlari va xondiza ma'dan maydoninig magmatik tog' jinslari haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar. Metabazalt, kundajuaz, angasay, metariolit, aylangar, metandezit, datsit, sienit, traxibazalt-bazalt.

Абстрактный. В данной статье представлены сведения о магматизме и полезных ископаемых Хандизинского горнорудного района, магматических комплексах и магматических породах Хандизинского горнорудного района.

Ключевые слова. Метабазальт, кундаюаз, ангасай, метариолит, айлангар, метадезит, дацит, сиенит, трахибазальт-базальт.

Abstract. This article provides information on the magmatism and mineralogy of the Khandiza ore field, as well as the igneous rocks of the Khandiza ore field.

Keywords. Metabasalt, kundajuaz, angasay, metariolite, aylangar, metandesite, dacite, syenite, trachybasalt-basalt.

Janubi-g'arbiy Hisor hududining magmatizmi yetarli darajada o'rganilmagan. Hududning magmatizmini o'rganishda I.M.Golovin (1950 y), P.D.Kupchenko (1957 y), M.S. Sultonov (1957 y), T.N. Dolimov (1981 y), D.A.Rubanov (1972 y)lar katta hizmat ko'rsatgan. To'plangan ma'lumotlar "O'zbekiston petrografiya" (1965 y), "O'zbekiston Respublikasi foydali qazilmalar geologiyasi" (1998 y), kabi asarlarda yoritilgan. Hududda tokembriy, rifey, toshko'mir va perm davrlariga xos magmatik komplekslar mavjud. Hududdagi asosiy magmatik jarayonlar tokembriy davriga mansub va ularni yoshi 1,7-1,1 mlrd yilga teng. V.A.Xoxlov, A.V.Pokrovskiyilar fikricha, ushbu davr mobaynida xilma-xil metabazalt, metaandezit, metariolit formatsiyalar bilan bir qatorda granitlar ham hosil bo'lgan. Tokembriy magmatik jinslari vulkanik metabazalt-porfiroid va plutonik gneys-granit jinslaridan iborat (1-jadval).

Metabazalt jinslarni Aylyangar kompleksi o'z ichiga oladi. Kompleks asosan, tonolit-gneyslardan tashkil topgan bo'lib, 250-300 metr qalinlikka ega. Bu kompleks

jinslari Alyangar braxiantiklinali gumbaz qismida tarqalgan. Metabazalt-porfiroid jinslarini Angasoy kompleksi o'z ichiga oladi. Kompleksning xususiyatli tomoni, metavulkanitlarining katta qismi gneyslashgan. Pigmatit-granit-gneys jinslarini Surxontov-Boysuntov kompleksi o'z ichiga qamrab oladi. Bu kompleks turli pigmatit, kvarsli diorit gneyslar, granitogneyslar va pegmatitlardan iborat. Rifey davri magmatik jinslari asosan plutonik tog' jinslaridan tashkil topgan bo'lib, ular slyudalardan granitlardan iborat.

Quyi toshko'mir (C₁) magmatik jinslari vulkanik riolit-traxiriolit, traxibazalt-bazalt va plutonik granodiorit-granitlardan tashkil topgan. Riolit-traxiriolit jinslarini Vaxshivar svitasi yotqiziqlari o'z ichiga oladi. Ushbu svita barcha tokembriy jinslarini va Zoysvitasi konglomeratlarini qoplab yotadi. Vaxshivar svitasining qalinligi har xil mualliflar baholashlarini hisobga olgan holda 1300 metrdan 1700 metrgacha deb belgilangan. Vaxshivar svitasining yoshi quyi toshko'mir Vizey yarusiga to'g'ri keladi (F.R. Bensch 1975 y). Eng qari magmatik kompleks quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

- kundajuaz gabbro-giperbazaltli - PRk;
- surxantov-baysuntov pigmatit-granitli-gneysli- PRs, PRb;
- aylangar metandezit - PRal;
- angasay metariolit - PRan.

Hisor janubi- g'arbiy tarmoqlari magmatizmi sxemasi

(T. N. Dolimov) bo'yicha:

1-jadval. Magmatik kompleks

Geoxronologik birlik	Magmatik komplekslar	
	Vulkanik	Plutonik
P ₁	Daykalar (janubiy Tyan-Shan kompleksi)	Gabbro-diorit-siyenit porfir kompleksi
C ₃	Traxibazaltlar (qayroq)	
C ₂	Datsit	Gabbro-granit (pojir)
C ₁	Sienit	
R	Traxibazalt-bazalt (g'ajir buloq) riolit traxiriolit (Vaxshivar)	Granodiorit-granit (Sina)
α		Slyudali granitlar
ε	Angasoy metabazalt porfiroid	Pigmatit-gneys-granit metabazalt (Aylyangar)

Traxibazalt-bazalt jinslarini G'ajirbuloq kompleksi o'z ichiga oladi. Ushbu svita asl kesmasi Vaxshivar daryosini o'ng qirg'og'idagi Bodavo (boda-havo) qishlog'i atrofida aniqlangan. Bu kompleks yotqiziqlari Xondiza ma'dan maydonida Chornova irmog'i yuqori oqimida kuzatiladi. Svita qalinligi 600 metrgacha yetadi. Quyi toshko'mir plutonik jinslari esa, Sina kompleksga kiradi va granadiorit-granitlardan tashkil topgan. O'rta toshko'mir magmatik tog' jinslari siyenit-porfir va siyenit-diorit daykalaridan iborat bo'lib, ularni Pomir intruziv kompleksi o'z ichiga oladi. Hududda yuqori toshko'mir va quyi permga tegishli plutonik jinslar mavjud bo'lib, bu jinslar gabbro-diorit-siyenit porfirlardan iborat.

Perm davri magmatik jinslari vulkanik traxibazaltlar va subvulkanik (intruziv) daykalar (gabbroid, bazaltoid, lamprofir) dan tashkil topgan. Vulkanik traxibazalt jinslarini Qayroq kompleksi o'z ichiga oladi. Bu kompleks Vaxshivar daryosi chap qirg'og'i bo'ylab tarqalgan. Subvulkanik (intruziv) daykalarini janubiy Tyan-Shan intruziv kompleksi o'z ichiga oladi. Bu intruziv kompleksi ma'dan maydoni hududida asosan shimoli-sharq yo'nalishiga ega daykalardan (lamprofir, gabroid, bazaltoid subishqorli αT_{2-3}) iborat va barcha paleozoy yotqiziqlarini yorib chiqqan 2-jadval. Ba'zan ular yer yoriqlarini to'ldiradi, hamda tavsiflanayotgan hududda rivojlanishining yakunlovchi intruziyalari hisoblanadi.

2-jadval. Xondiza ma'dan maydoninig magmatik sxemasi

Magmat izm bosqichlari	Magmatik kompleklar	Kompleks tarkibi (A.G.Shmelov va E.D.Bezuglov).	geokimyoviy mutaxassis (Z.A.Yudaliyevich)
Gersin	Janubiy - Tyan-Shan	Lamprofir – αT_{2-3}	Aniq emas
	Pojir	Sienit-porfir – $\epsilon, \pi Pp$ Sienito-diorit-porfir – $\epsilon, \delta \pi Pp$ Diorito-porfir – $\delta \mu Pp$. Diabaz va diabazporfir – $\beta - \beta \mu Pp$.	Pb, Zn, Cu; Fe, Mo; W, Be, F
	Tanxaz	Gabbro – γC_{1-2}	Au, Cu, Sn, Zn, Pb. oltin-kvars-sulfid. Kvars-polimetall
	O'rta karbon	andezit-datsit porfirit – $\alpha \pi C_{1-2}$	
	Quyi karbon	Kvars va kvars dala shpati riolit-porfir – $\lambda \pi C_1$ Granit-porfir – $\gamma \pi C_1$ Darsit-porfir – $\alpha \pi C_1$	Kolchedan polimetall
Kaledon	Surxan	Granit - $\forall D_3$	Au – Cu Au-polimetall
	Angasoy	Granito - gneys – $\gamma \epsilon \alpha$ amfibolit – $\gamma \epsilon \alpha$	Aniq emas

Hududning janubiy-g'arbiy qismda Hisorning Boysun metallogenik zonasida ko'plab foydali qazilmalarga istiqbolli hududlar joylashgan. Mazkur hududning o'ziga xos geologik vaziyati turli metallogenik foydali qazilmalar rivojlanishini belgilab beradi. Bular asosan kolchedan-polimetallik, polimetallik, oltin-kumushli va polimetalli konlar. Ular turli genetik va mineralogik xususiyatlarga ega. O'rganilayotgan maydonda eng yirik Xondiza polimetall koni ochilgan va sanoatda foydalanilmoqda. Xondiza koni ma'dan maydonining shimoli-g'arbiy qismidi joylashgan. Kon quyi toshko'mir davriga mansub almashinib qavatlanuvchi cho'kidi-vulkonagen yotqiziqlarida joylashgan.

Ma'dan tanalari bereziy formatsiyasining gidrotermal o'zgargan jinslarida mujassamlashgan. Mineral tarkibi bo'yicha ikki xil ma'dan turlaridan iborat. Kolchedan-polimetalli va polimetall. Ma'dan hosil qiluvchi minerallari mayda donador xalkopirit, galenit, sfalerit va piritlardan tashkil topgan.

Ushbu maydonda yuqorida qayd etilgan asosiy kondan tashqari huddi shunday tarkibga va genezisga ega bir qator kichik konlar va kon nishonalari ham ochilgan. Bular Chinorsoy koni va Suvlisoy, Novasoy, Chornova, Yong'oqlik, Dalnee kon nishonalari aniqlangan.

Ushbu maydonda yuqorida bayon etilgan kolchedan-polimetall, polimetall, oltin-kumushli va polimetalli foydali qazilmalardan tashqari boksit, toshko'mir va qurilish materiallari ham mavjud.

Boksit. Amominiyga boy qatlamli jinslar ko'plab joylarda ochilmalar hosil qiladi. Ular yuvilgan va nuragan paleozoy kompleksi yuzasida uchraydi hamda mezo-kaynezoy yotqiziqlari bilan qoplangan. Bundan tashqari boksitga o'xshash ba'zan sillitlar Yong'oqlik, Gurud, Panama soylari havzalarida ham kuzatiladi. Lekin mazkur jinslar kam tarqalgan hamda sifati, xom-ashyo miqdori, qalinliklari va tarqalishi bo'yicha e'tiborga loyiq emas.

Bular ichida eng qiziqish uyg'otuvchi namoyonda Yong'oqlik soyda kuzatiladi. Bu yerda boksitga o'xshash jinslar qatlam hosil qilib uning qalinligi 1.0-1.9 m. tarqalishi 100 m. dan ziyod. Kimyoviy tarkibida Al_2O_3 53% ni tashkil etadi.

Toshko'mir. O'rganilgan maydonda bir qator kichik konlar kuzatiladi. Ular yura davrining Gurud svitasi bilan bog'liq. Mazkur ko'mir konlari o'rganilib quyidagi zahiralalar belgilangan: Jil koni-18,6 mln. t., Gurud koni-7,9 mln.t. va Panama konida-4,0 mln.t. 1995-1998 yillarda mazkur konlar Gurud partiyasi tomonidan o'rganilgan. Ko'mir qatlamlarining qalinligi o'rtacha 1,2 m dan 6,15 m gacha. Barcha ko'mir qatlamlari murakkab tuzilishga ega. Mazkur ko'mir konlari mahalliy miqyosda energetik yoqilg'i sifatida qo'llanilishi mumkin.

Maydonda turli qurilish materiallari ham keng tarqalgan, jumladan qum, shag'al, ohaktosh va qurilish materiallari uchun xom-ashyo ham aniqlangan.

Xondiza ma'dan maydoni hududida hozirgi kunda sanoat ahamiyatiga ega konlardan biri hisoblanadi. Xondiza koni va geologok strukturaviy vaziyati hamda mineralizatsiya turini umumiyiligi bilan xususiyatlanuvchi bir qator madan namoyonlari va madan nuqtalari mavjud va maskur geologik xaritada Xondiza ma'dan maydonidagi ma'danli maydonlar ko'rsatilgan.

Xondiza konidan 3km janubiy-sharqda joylashgan va asosan Vaxshivar svitasi o'rta kichik svitasining cho'kindi vulkanogen jinslarda kuzatiladi. Vaxshivar svitasining quyi va yuqori kichik svitalari yotqiziqlari biroz kichikroq ko'lamga ega, hamda maydonning janubiy-g'arb va shimoliy-sharq qismlarida keng tarqalgan dayka kompleksi riolit porfirlar, sienit-porfirlar, sienit-dioritlar porfiritlari va lamprofirlardan iborat.

Lava, lavobrekchiya, klastolava va riolit tarkibli tufolava hamda psefitli tuf qatlamchalaridan iborat, o'rta vulkanogen pachkaning quyi riolitli gorizonti ma'dan qamrovchi hisoblanadi.

Ma'dan ustidagi yuqori gorizont lava, klastolava va riolit-datsit tuflaridan iborat. Metosomatik o'zgarishlar berezitlashish jarayoniga mos kelib,seritizatsiya, kvarslashish, albitizatsiya, xloritizatsiya va gematizatsiyalar bilan ifodalanadi.

1977-yilgacha kon yuzasida riolit gorizontida bir necha kolchedan va kolchedan-polimetall turidagi linzasimon mayda tanalar aniqlangan.

Yuqori zona riolit gorizontining yuqori blokida, quyi zona esa uning o'rta qismida joylashgan. Yuqori zona oltin-kumush-kolchedan-polimetalltarkibli tomirli va shtokverkli turdagi bir qancha mayda tanalar hamda oltin-kumush tarkibli muvofiq bir qancha qatlamli tanalardan iborat.

Quyi zonada kolchedan va kolchedan- polimetall tarkibli past miqdorli tomirchali ma'danlashuv rivojlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Геология и полезные ископаемые Республики Узбекистан». Муаллифлар гурухи. Тошкент 1998.
2. Далимов Т. Н., Куртарникова А. А., Ярмухамедов М. Х., Кадиров М. Х., Арапов В. А., Рахманов К., Шарипов Т. Т. «Вулканогенные формации Узбекистана» «ФАН» нашриёти ЎзССР Тошкент -1971.
3. Королев А. В., Шехтман Н. А. «Структурные условия размещения послемагматических руд» «НЕДРА» нашриёти , Москва 1965.
4. «Магматические формации и фации Узбекистана» Муаллифлар гурухи. Издательство «ФАН» УзССР Тошкент-1977.
5. Панкратьев П. В., Михайлова Ю. В. «Колчеданно полиметаллическое оруденение Южного Узбекистана». Издательство «ФАН» УзССР Тошкент - 1971.